

**BOLALAR TALAFFUZINI TO‘G‘RI RIVOJLANTIRISHDA
TEZ AYTISHLARNING AHAMIYATI**

Fayziyeva Shamsiya

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar talaffuzini to‘g‘ri rivojlantirishda tez aytishlarning ahamiyati misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tez aytish, talaffuz, tovush, so‘z, so‘z birikmasi, nutq.

Аннотация: В данной статье на примерах анализируется значение быстрого произношения в правильном развитии детского произношения

Ключевые слова: быстрая речь, произношение, звук, слово, фраза, речь

Annotation. In this article, the importance of rapid pronunciation in the correct development of children's pronunciation is analyzed with the help of examples.

Keywords: speaking quickly, pronunciation, sound, word, phrase, speech

Xalqimizning bebaho mulki hisoblangan o‘zbek folklori qadim zamonlardan beri og‘izdan-og‘izga o‘tib xalqimiz bilan birga yashab kelmoqda. O‘zbek xalq og‘izaki ijodi qadimiy so‘z san‘ati sifatida nafaqat chuqur g‘oyaviyligi, yuksak badiiyliigi, balki mazmundagi yorqinlik, tildagi soddaligi bilan ham ajralib turadi. Folklorning o‘xshash va farqli xususiyatlari hisobga olinib maqol, topishmoq, doston, askiya, lof, latifa va hokazo turlari shakllangan bo‘lib, shulardan biri tez aytishlardir. Qadimda “Tutal”, “Chalg‘ituv”, “Chalish”, “Adashish” atamaları bilan mashhur bo‘lgan tez aytishlar ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. “Tez aytishlar ma‘lum so‘zni, so‘z birikmasini yoki tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga, nutqini o‘stirishga, o‘qish sur‘atini oshirishga, shu bilan birgalikda ko‘p raqamli sonlarni xotirada mustahkamlashga o‘rgatuvchi janr hisoblanadi. Qadimgi qoidalarga binoan tez aytishni bir nafas olish bilan aytish talab qilingan”. [1]

Tubsiz dengiz dedingizmi?

Dengiz tubsiz dedingizmi?

Tez aytishlar dastlab kattalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘tmishda katta yoshdagi odamlar o‘tirishlarda, to‘ylarda musoboqalashib madaniy hordiq olganlar. Qoidaga binoan tez aytish bir nafas bilan, har bir tovush o‘z o‘rnida, to‘g‘ri, ravon talaffuz etilishi va iloji boricha ko‘p marta aytilishi shart bo‘lgan.

Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh ming mis barkash.[2]

Ushbu tez aytishda aytuvchi murakkab tovushlarni talaffuz qilishda adashib ketishi mumkin va bu tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo'ladi, yanglishgan tomon yengilgan hisoblanadi.

Tezaytishlarda talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlar ko'pligi tufayli u janr bolalar folkloridan o'rin olgan.

O'ktam ko'm-ko'k ko'rkam ko'klam rasmini ko'p ko'k qalamda chizmoqchi.

Bu tez aytishda aslida O'ktamning rasm chizmoqchiligidan xabar berilayotgani "O" va "K" harflaring ko'p marta takrorlanishiga asoslangan. Tez aytishni yodlash o'quvchidan zukkolikni talab qiladi va endi maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchi ongida "ko'rkam", "ko'klam" nima ekanligi va tabiat go'zalligi haqida tushunchalar hosil bo'ladi.

Shuningdek, qiziqarli va mantiqiy savol tarzidagi tezaytishlar ham mavjud. Quyidagi tez aytish, nazarimizda, samimiy va bir ozgina yumorga boy, chunki savolni o'qir ekan qizaloqlar "Haqiqatdan ham qo'ng'iroq o'zi qo'g'irchoqqa tegishlimi yoki qo'zichoqqami?" deb biroz o'ylab qoladi. Ushbu savollarga javob topish barobarida bilimlarga ham ega bo'ladi:

Qo'nhiroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zichoqnikimi? [3]

O'quvchi biror ma'lumotni qanchalik qiziqish bilan o'rgansa, uning xotirasida shunchalik o'sish, rivojlanish bo'ladi va ma'lumotlar uning ongida uzoq muddat saqlanib turadi.

Olti juft oq chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoq yopsa bo'ladimi?

Bu tez aytish xuddi mantiqiy masalaga o'xshaydi, birinchi sinf o'quvchisi uchun bosh qotirishga arziydi: "olti kattami yoki to'rtmi?", "oq rangli chinni choynakka ko'k rangli qopqoq mos keladimi?" Birgina tez aytishni yod olishi natijasida o'quvchiing "kattakichik", "ko'p-kam", "ranglar" kabi sifatlar to'g'risidagi tushunchalari ortadi. Demak, tez aytishlar o'quvchilarning ona tili grammatikasi bo'yicha ham bilimni boyitishga xizmat qiladi.

Tez aytishlardan samarali foydalanish bolalarning nutqini ravon qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarning nutqini ravon qilishi juda muhimdir. Chunki bolalarning hozirgi zamon talablari asosida jamiyatimizda faolligini ta'minlashda nutq ravonligining o'rni beqiyos. Nutq insonlar aro aloqa vositasi bo'lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko'nikmalarini puxta egallashga o'rgatish zamon talabidir:

Erkin egatga ertachi ekinni ertalab ekdi.[4]

Mazkur tez aytishga e'tibor bersak, "E" unlisining takror qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz. "E" unlisini talaffuz qilishda qiyinchilikka duch keladigan bolalarning nutqidagi nuqsonlarning bartaraf etishda foydalanish mumkin.

Tez aytish bolanig aynan qaysi unli yoki undosh tovushlarni aytishda qiynalishiga qarab tanlanadi. Masalan:

Ruxsor Ra'nodan ranjidimi?

Ra'no Ruxsordan ranjidimi?

Tez aytish "R" undoshi talaffuziga bag'ishlangan, bilamizki, ko'pchilik bolalarda "R" tovushini "Y" yoki "L" tarzida talaffuz qilish holatlari uchraydi. Bolalarning muntazam ravishda shunga o'xshash tez aytishlarni mashq qildirib borishlari yaxshi samara beradi. Bu jarayonda oddiydan murakkabga qarab borish foydaliroq, ya'ni yuqoridagi tez aytishimiz nisbatan sodda, quyidagi esa anchayin murakkab hisoblanadi:

Bir tup tut. Bir tup turp. Bir tup Tut, bir tup tutning tagida bur tup turp. Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi. Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

Bunda so'zlarni farqlash ham juda muhim, tup va turp, tut va tup so'zlari bir-biriga juda yaqin, o'xshash. Tez aytish o'quvchining o'qish suratini oshiradi, zehni charxlaydi, talaffuzda hushyorlikka undaydi.

Tez aytishning yana bir xususiyati ko'p xonali sonlarni xotirada mustahkamlashda yordam beradi.

Tulki terisidan tikilgan to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz telpakning tepasiga to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizta tumor tiktirdim.

Tez aytishlarnig mavzu doirasi ham xilma-xil va cheklanmagan. Masalan: mevalar, uy ro'zg'or buyumlari, hayfonlar, qushlar, xullas, kundalik hayotimizda uchraydigan barcha jonli va jonsiz narsalarni qabrab oladi. Masalan, o'quv qurollari:

Olam qalam bilan,

Qalam olam bilan.

Kotib shu top kitob deb qildi xitob.[5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Tez aytish"lar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz va nutqini rivojlantirishga, hisob-kitobni, tabiatni anglashda, yangi so'zlar o'rganishda, mantiqan fiklashni rivojlantirishda, shuningdek, aqlan rivojlanishida katta hissa qo'shadi. Bu natijalarga erishish uchun nafaqat o'qitish jarayonida, baliki uyda ota-onaliri yordamida "Tez aytish" o'yinlarini tez-tez o'tkazib turish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularni kundalik odatga aylantirsak, bolalar nutqining rivojlanishida bir omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. f.f.n. G.RAHIMOVA, f.f.n. F.SHODIYEV. Bolalarga Sonlarni O'rgatishda Xalq Og'Zaki Ijodining Roli. **ECLSS Online 2020a, Samarkand, Uzbekistan** May 20-21, 2020 <http://eclss.org/publicationsfordoi/samarkandonline.pdf> [doi: 10.35578/eclss.52780] . 501-505.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –T.: "Fan", 2006.
3. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 303-b.
4. Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz
5. Tez aytishlar - gulxan.uz